



SABZAVOT-POLIZ EKINLARDA UCHRAYDIGAN FITOFAG QO'NG'IZLARINING TARQALISHI.

A.R.Rayimov

b.f.f.d. PhD dos, Buxoro davlat pedagogika instituti.

M.U.Ibodulloyev

Buxoro davlat pedagogika instituti talaba

S.N.Asadova

Buxoro davlat pedagogika instituti talaba

D.Z.Shavkatova

Buxoro davlat pedagogika instituti talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13989486>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15- Oktyabr 2024 yil

Ma'qullandi: 20- Oktyabr 2024 yil

Nashr qilindi: 25- Oktyabr 2024 yil

KEY WORDS

*Cho'l, yaylov, qo'riqxon, Qizil
Kitob, tuxum*

ABSTRACT

Tadqiqotlarimizda Buxoro viloyati hududlarida uchraydigan fitofag sabzavot-poliz ekin qo'ng'izlarning xilma-xilligi, soni, biotoplar bo'yicha tarqalishi va tur tarkibining mavsumiy o'zgarishi tahlil etiladi. Turli xil biotik, abiotik va antropogen omillar qo'ng'izlar faunasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Keyingi yilliklarda yuz berayotgan iqlim sharoitidagi keskinlashuv hamda ekin turlarida bo'lgan o'zgarishlar Buxoro viloyati entomofaunasiga ham ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Mamlakatda qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibidagi yangilanishlar, yangi nav va ekin turlariga ixtisoslashtirish, o'z navbatida, ularga xos bo'lgan hasharotlar xilma-xilligining ortib borishiga, sabab bo'lmoqda[1;2;3;4;5;6;7;8;9]. Tabiatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fitofag qo'ng'izlarni har tomonlama o'rganish orqali ularning sonini boshqarish, ekologik barqarorlikni va fitofag qo'ng'izlar xilma-xilligini saqlashni taqozo etmoqda [16;20;23;24;25;26;17;18;19]. Buxoro viloyati hududlarda uchraydigan fitofag qo'ng'izlarning tur tarkibi, soni, biotopik taqsimlanishi, ko'payishi, mavsumiy va davomiyligi o'rganilmaganligi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Buxoro viloyati hududlarda uchraydigan fitofag qo'ng'izlarning faunasi tur tarkibini aniqlash maqsadidagi kuzatuvlarimizni 2015-2024 yillar oralig'ida amalga oshirildi[10;11;12;13;14;15;].

Buxoro viloyatida sabzavot-poliz ekinlarida uchraydigan fitofag qo'ng'izlarning 1 turkum, (Qattiq qanotlilar - *Coleoptera*) 5 oila (Yaproqsimon mo'ylovlilar -*Scarabaeidae*, Tugmach qo'ng'izlar - *Coccinellidae*, Qora tanli qo'ng'izlar -*Tenebrionodae*, Malhamchi qo'ng'izlar -*Meloida*, Bargxo'rlar- *Chrysomelidae*,) 8 turi uchrashi aniqlangan [2]. (1 - jadval).

1 - jadval

Buxoro viloyati sabzavot-poliz ekinlarida uchrovchi fitofag qo'ng'izlarning tur tarkibi.

No	Hasharot turlari	Sabzavot dalasi	Poliz dalasi	Issiqxona
	Kenja olam	Ko'p hujayrali hayvonlar - Metazoa		
	Bo'lim	Haqiqiy ko'p hujayralilar - Eumetazoa		
	Tip	Bo'g'imoyoqlilar - Arthropoda		
	Kenja tip	Traxeyalilar -Tracheata		
	Sinf	Hasharotlar -Insecta		
	Kenja sinf	Haqiqiy hasharotlar - Ectognata		
	Turkum	Qattiq qanotlilar - Coleoptera		
	Oila	Yaproqsimon mo'ylovlilar -Scarabaeidae		
1	Qora rangli kravchik - <i>Lethus rosmarus</i> .		+	
2	Turkiston zararkunanda qo'ng'izi - <i>Polyphylla adpersa</i>	+		
3	Hoshiyali bronza qo'ng'izi - <i>Oxythyrea cinctella</i>	+	+	
	Oila. Tugmach qo'ng'izlar - Coccinellidae			
4	Poliz tugmacha qo'ng'izi - <i>Ephilachna chysomelina</i>	+	+	
5	Etti nuqtali xonqizi-Cocimella septenpunctata	+	+	+
	Oila. Qora tanli qo'ng'izlar -Tenebrionodae			
6	Cho'l sustkashi -Blaps halophile		+	
	Oila. Malhamchi qo'ng'izlar -Meloida			
7	To'rt nuqtali -Mulabris guad ripunctata	+		
	Oila. Bargxo'rlar- Chrysomelidae			
8	Kolorada qo'ng'izi -Leptinotarsa desemlineata	+		+

Deyarli barcha agrotsenozlarda (*yetti nuqtali xonqizi-Cocimella septenpunctata*) uchraydigan turlarga kiradi.(1.jadval)

2.jadval

Buxoro viloyati hududida uchrovchi sabzavot-poliz ekinlari fitofag qo'ng'izlarning oilalar spektri .

Oila nomi	Tur soni	Fitofaglarga nisbatan ulushi (%)
Yaproqsimon mo'ylovlilar -Scarabaeidae	3	37,5
Tugmach qo'ng'izlar - Coccinellidae	2	25
Qora tanli qo'ng'izlar -Tenebrionodae	1	12,5
Malhamchi qo'ng'izlar -Meloida	1	12,5
Bargxo'rlar- Chrysomelidae	1	12,5
Jami	8	100

Olingan natijalarga ko'ra, Buxoro viloyatida sabzavot-poliz ekin qo'ng'izlari taksonomik tarkibiga ko'ra Yaproqsimon mo'ylovlilar -Scarabaeidae oila vakil eng ko'p (3 ta) turga ega bo'lib, entomofaunadagi ulushi 37.5% dan tashkil etadi. Tugmach qo'ng'izlar - Coccinellidae oilasiga 2 ta tur (25 %), Qora tanli qo'ng'izlar -Tenebrionodae oilasiga 1 ta tur (12,5 %), Malhamchi qo'ng'izlar -Meloida oilasiga 1 ta tur (12,5 %), Bargxo'rlar- Chrysomelidae oilasiga 1 ta tur (12,5 %), kiradi.(2- jadval).

(3-jadval).

Buxoro viloyati hududida uchrovchi sabzavot-poliz ekinlari fitofag qo'ng'izlarning taksonomik tarkibi

Tip	Sinf	Turkum	Oila	Tur
Arthropoda	Insecta	Scarabaeidae		<i>Lethus rosmarus.</i>
				<i>Polyphylla adspersa</i>
				<i>Oxythyrea cinctella</i>
		Coccinellidae		<i>Ephilachna chysomelina</i>
				<i>Cocimella septenpunctata</i>
		Tenebrionodae		<i>Blaps halophile</i>
		Meloida		<i>Mulabris guad ripunctata</i>
		Chrysomelidae		<i>Leptinotarsa desemlineata</i>

Turlar xilma-xilligiga monand oilalar miqdori ham yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Sabzavot-poliz ekinlarida 5 ta oilaga mansub fitofag hasharotlar mavjudligi kuzatildi. Ulardan 1 tadan turni o'zida birlashtirgan 3 ta oila (Qora tanli qo'ng'izlar –Tenebrionodae, Malhamchi qo'ng'izlar –Meloida, Bargxo'rlar- Chrysomelidae) jami oilalarning 60%, shuningdek 2 tadan turni o'zida birlashtirgan 1 ta oila 20% (Tugmach qo'ng'izlar – Coccinellidae), 3 tadan turni o'zida birlashtirgan 1 ta oila 20% (Yaproqsimon mo'ylovlilar -Scarabaeidae) tashkil qiladi (3-jadval).

Xulosa. Hozirgi vaqtda biologik xilma- xillikning ajralmas qismi sabzavot-poliz agrotsenozlarda tarqalgan zararkunanda fitofag qo'ng'izlar faunasining tur tarkibi aniqlangandagina samarali chora tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish mumkin. Buxoro viloyati sabzavot-poliz agrotsenozlarda uchraydigan fitofag qo'ng'izlar faunasini o'rganish, doimiy monitoring olib borish, amaliy ahamiyatga molik turlarini himoya qilish

uchun juda muhimdir. [21;27;30;40;35;36;27;28;29]. Shuningdek ushbu tadqiqotlarni muntazzam olib borish orqali, qo'ng'izlar faolligini yil mavsumiga qarab o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz va shunda sabzavot va poliz agrasenoziylarining zararkunanda fitofag qo'ng'izlarni sonini boshqarish imkoniyatlarimiz oshirgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rayimov A.R, To'raev M.M., Mustafoyev H.M., Saidova M.S. Buxoro viloyatida uchrovchi qo'ng'izlar (Coleoptera)ning sistematik tahlili. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-2024 №3/1 B.97-102
2. Rayimov A.R., Normurodov M.D., Saidova M.S., Zohirova N.Z. Entomophage insects fauna of the agrocenoses of Bukhara. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: Ilmiy jurnal.-№6/1 2023 y.B.44-48
3. Rayimov A.R, Pardayev Sh.S., Sharopova M.A., Normurodov M.D. Buxoro viloyatida uchrovchi kapalaklar (Lepidoptera) faunasi. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-2024 №2/1
4. A.R. Rayimov, M.D. Normurodov, Systematic analysis of butterflies in Bukhara region BIO Web of Conferences 93, 01027 (2024) <https://doi.org/10.1051/bioconf/20249301027>Forestry Forum 2023
5. Rayimov A.R, Zohirova N.Z. Species composition and number of insects found in vegetable, cucurbit fields of the Bukhara region. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi:№2/1 2023 y.B.24-28
6. Rahmonov. R.R., Rayimov A.R. Ecological positions of hunting species in Bukhara region // International Journal of Genetic Engineering. – 2019.–№7 (1). – P. 15-18. (№11).
7. Рахмонов Р.Р., Райимов А.Р. Антропоген омилларнинг овладиган хайвон турларига таъсирини баҳолаш // Хоразм маъмур академияси ахборотномаси. – Хива, 2019. – №2. – Б. 27-29. (№12).
8. Рахмонов Р.Р., Райимов А.Р. Бухоро вилоятида овладиган хайвон турларининг экологик хусусиятлари // ҚарДУ Хабарлари. – Қарши, 2019. – № 2. – Б. 23-30. (№11).
9. Rayimov A.R., Rahmonov R.R. The distribution and number of Acridotheres tristis in different habitats in the Kyzylkum // European Science Review. – Vienna, 2019. – № 1-2. – P. 37-39.
10. Rakhmonov R.R., Rayimov A.R. Structure and distribution of animals in the Bukhara region // European Science Review. – Vienna, 2019. – № 1-2. – P. 34-36.
11. Rayimov A.R., Analysis of summer nutrient content in the South-West Kyzylkum region of Acridotheres Tristis Solid State Technology, №63 (5)
12. З.Т.Сафарова, Райимов А.Р. Адаптирование детей к новым социальным условиям. Научный методический журнал.№ 5.(28) 2018 г Б 20-22
13. Rakhmonov R.R., Rayimov A.R Raximov J.R., Mavlonov A.M. Buxoro viloyati ovchilik xo'jaliklari. Buxoro "Durdon" 2022 Ilmiy-uslubiy qo'llanmada 139 b.
14. Rayimov A.R. Information about spring nutrition of Acridotheres tristis // VII Международная научно-практическая конференция « Проблемы рационального использования и охрана природных ресурсов Южного Приаралья ». – Нукус, 2018. P. 197-199.

15. Rayimov A.R. Mayna (*Acridotheres tristis*) ning tarqalishiga doir ma'lumotlar // VII Международная научно-практическая конференция Проблемы рационального использования и охрана природных ресурсов Южного Приаралья – Нукус, 2018. – С. 199-200.
16. Райимов А.Р. Майна (*Acridotheres tristis*) ning a'holi punktlarida tarqalishi va soni // Ўзбекистон биохилма –хиллиги, уни сақлашда ўсимлик ва ҳайвонот дунёсининг роли. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Жиззах, 2019. – Б. 98-102.
17. Райимов А.Р. Майнанинг (*Acridotheres tristis*) ёзги озикланишига доир айрим маълумотлар // Ўзбекистон биохилма – хиллиги, уни сақлашда ўсимлик ва ҳайвонот дунёсининг роли. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Жиззах, 2019.– Б. 3-6.
18. Rayimov A.R. Maynaning (*Acridotheres tristis*) Janubi-G'arbiy Qizilqumda tarqalishi, ekologiyasi va ahamiyati "Sadridin Salim Buxoriy" Monografiya Durdona, 2022. B-132
19. Rayimov A.R., To'raev M.M., Rustamova M.A. Buxoro viloyati va unga chegaradosh hududlarda uchrovchi O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan yirtqich qushlarning tur tarkibi. Международной научно-практической конференции «Инновационные основы сельскохозяйственных и биоэкологических исследований в регионе приаралья» 2023 г. Нукус.Б 296-298
20. Тўраев М.М., Холбоев Ф.Р., Райимов А.Р., Рахмонов Р.Р. Бухоро вилояти қушлари. Илмий услубий қўлланма. – Тошкент:, Наврўз-2015. - Б. 90
21. Rayimov A.R. Turaev M.M, Fish Fauna of the Watery Areas of Bukhara Region and Adjacent Territories. Journal of Survey in Fisheries Sciences Canadian Fishery Dept.2023 P.916-922

INNOVATIVE
ACADEMY